



## QASHQADARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot  
2023- yil yanvar-mart oylari*




## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumi ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan. 2023- yil 1- aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni 8271 tani tashkil etib, 2022- yil 1-aprelga nisbatan 595 taga oshgan (o'sish sur'ati 107,8 %). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 23 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 8248 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTlar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatgichlariga kiritilgan.

### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-mart oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **3957,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **101,2** % ga etdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **194,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **111,5** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **3201,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **100,6** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **561,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **101,5** %) tashkil etdi.


**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK  
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY  
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O'SISH SUR'ATLARI**

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar – mart oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – mart oylariga nisbatan, foizda
<b>Viloyat bo‘yicha</b>	<b>3957,6</b>	<b>101,2</b>	<b>194,6</b>	<b>111,5</b>	<b>561,9</b>	<b>101,5</b>
<b><i>shaharlar:</i></b>						
Qarshi	1059,0	104,1	129,3	121,9	39,9	100,2
Shahrisabz	328,3	100,1	5,2	197,2	8,7	100,0
<b><i>tumanlar:</i></b>						
G‘uzor	155,0	100,0	1,5	49,8	29,7	99,8
Dehqonobod	132,4	98,4	1,7	92,7	16,0	99,2
Qamashi	284,1	100,4	2,8	68,0	49,0	101,4
Qarshi	113,4	100,4	3,5	76,2	7,3	97,3
Koson	255,6	103,1	12,6	245,8	8,8	103,1
Kitob	235,7	98,8	2,7	27,0	47,0	100,9
Mirishkor	135,3	100,1	1,9	119,9	4,6	103,6
Muborak	113,5	108,3	11,6	832,3	23,0	96,5
Nishon	153,3	97,0	1,8	81,6	26,2	100,3
Kasbi	139,0	100,3	2,5	102,7	13,8	103,9
Ko‘kdala	172,8	100,0	0,1		96,8	99,1
Chiroqchi	347,0	100,2	7,0	45,3	146,6	105,7
Shahrisabz	145,4	98,2	7,4	73,2	19,3	101,6
Yakkabog‘	188,0	100,0	2,9	74,9	25,2	100,8

2023- yilning yanvar-mart oylarida 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan viloyatning Muborak (**108,3 %**), Qarshi shahri (**104,1 %**), Koson (**103,1 %**), Qamashi va Qarshi tumanlari (**100,4 %**) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


## YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

**Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi**  
(yanvar-mart, mldr.so'm)




So'nggi **6 yillikda** chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2020- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2022-yilning mos davriga nisbatan **101,2 %** ni yoki **3957,6** mlrd. so'mni tashkil qildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati  
oylar kesimida (foizda)  
( 2023- yil yanvar-mart oylari)**



2023- yilning yanvar-mart oylarida o'sish sur'ati **101,2 %** ni tashkil qildi.

## Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni, Qarshi shahri **26,8 %** bilan **1059,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Qarshi tumani **2,8 %** bilan **113,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda kamayish kuzatildi.


## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **3201,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **100,6 %** ga kamaydi. Viloyat miqiyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **80,9 %** ni tashkil etdi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atga ega hududlar(foizda)




### Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **11,5 %** ga o'sdi va **194,6** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **4,9 %** ulushiga to'g'ri keldi.

## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, *(foizda)*



■ Yirik korxonalar      ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Ko'kdala (**99,9 %**), G'uzor tumanlari (**99,1 %**) Qamashi (**99,0 %**) yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi **4,9 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Qarshi shahri (**12,2 %**), Muborak (**10,2 %**), Shahrisabz (**5,1 %**), Koson (**4,9 %**) tumanlarida kuzatildi.

## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

### Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming so'm	O'sish sur'ati, foizda
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>1 133,7</b>	<b>99,1</b>

shaharlar:

Qarshi	3 652,9	101,8
Shahrisabz	2 262,5	98,6

tumanlar:

G'uzor	711,8	97,7
Dehqonobod	845,2	96,4
Qamashi	988,3	98,2
Qarshi	425,7	98,0
Koson	836,6	100,7
Kitob	851,4	96,9
Mirishkor	1 065,1	98,0
Muborak	1 233,5	106,5
Nishon	939,1	94,8
Kasbi	665,7	98,2
Ko'kdala	939,2	-
Chiroqchi	1 327,4	166,1
Shahrisabz	628,0	96,7
Yakkabog'	677,8	97,9


2023- yilning yanvar-mart oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **1133,7** ming so'mni (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **99,1 %**) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda, eng yuqori hajm Qarshi (**3652,9** ming so'm), Shahrisabz (**2262,5** ming so'm) shaharlari va Muborak tumani (**1233,5** ming so'm) hissasiga to'g'ri keldi.


# UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-mart oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **561,9** mld. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **101,5 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **261,7** mld. so'mni (**100,3 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **300,2** mld. so'mni tashkil etdi (**102,6 %**).

## **Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasida yuqori hajmli hududlar** (mlrd. so'm)




## **Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)**



## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shahobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – mart oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – mart oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – mart oylariga nisbatan, foizda
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>561,9</b>	<b>101,5</b>	<b>261,7</b>	<b>100,3</b>	<b>300,2</b>	<b>102,6</b>

**shaharlar:**

Qarshi	39,9	100,2	39,9	100,4		
Shahrisabz	8,7	100,0	8,7	100,0		

**tumanlar:**

G'uzor	29,7	99,8	13,3	95,0	16,4	104,5
Dehqonobod	16,0	99,2	7,5	99,1	8,5	99,0
Qamashi	49,0	101,4	20,8	100,1	28,2	102,3
Qarshi	7,3	97,3			7,3	97,9
Koson	8,8	103,1	3,9	95,9	4,9	108,5
Kitob	47,0	100,9	21,9	105,4	25,1	97,5
Mirishkor	4,6	103,6	2,1	103,3	2,5	100,6
Muborak	23,0	96,5	8,0	71,5	15	118,6
Nishon	26,2	100,3	12,0	97,5	14,2	103,0
Kasbi	13,8	103,9	6,1	98,2	7,7	108,2
Ko'kdala	96,8	99,1	31,1	95,6	65,7	106,0
Chiroqchi	146,6	105,7	50,6	107,7	96	101,2
Shahrisabz	19,3	101,6	10,6	118,8	8,7	86,5
Yakkabog'	25,2	100,8	25,2	101,0		

\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdag'i tadbirkorlar (YATT)ni qo'shмаган holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023- yilning yanvar-mart oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **261,7** mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm,yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (**157,9** mlrd.so‘m) to‘g‘ri keldi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	mlrd. so‘m
	<b>Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari</b> <b>157,9</b>
	<b>Non va non mahsulotlari</b> <b>40,0</b>
	<b>Don mahsulotlari</b> (mosh, loviya, guruch va boshqalar) <b>9,8</b>
	<b>Tovuq go‘shti</b> <b>16,3</b>
	<b>Quritilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari</b> (yong‘oq, bodom, pista va boshqalar) <b>6,1</b>
	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> (pishloq,brinza va boshqalar) <b>6,2</b>
	<b>Tuxum</b> <b>5,4</b>
	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak</b> <b>2,3</b>
	<b>Ziravorlar</b> <b>12,0</b>
	<b>Tuzlamalar</b> <b>4,7</b>
	<b>Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari</b> (manzarali va qishloq xo‘jaligi) <b>1,0</b>
	<b>Nooziq-ovqat tovarlari</b> <b>-</b>

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so'm

2023- yilning yanvar-mart oylarida viloyatninng barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **300,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **138,8** mlrd.so'm, qo'y va echkilar – **31,8** mlrd. so'mni, otlar – **11,6** mlrd. so'mni, parrandalar – **1,6** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)	mlrd. so'm
 2 yoshdan kata bo'lgan qoramollar	<b>138,8</b>
 1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	<b>56,9</b>
 1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	<b>15,7</b>
 Qo'ylar	<b>43,8</b>
 Otlar	<b>11,6</b>
 Echkilar	<b>31,8</b>
 Kurka, o'rdak, g'oz	<b>1,0</b>
 Tovuqlar	<b>0,6</b>
 Quyonlar	<b>-</b>
 Qushlar	<b>-</b>

# UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2023- yil 1- aprel holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1616 tani tashkil etib, 2022- yil 1 – aprel holatiga nisbatan 44 taga kamaygan va o'sish sur'ati 97,3 % tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1614 tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-mart oylarida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **2,3** % ni tashkil etib, **102,5** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **100,6** % ga kamaydi. Bunda savdo aylanmasining **95,4** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar – mart oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – mart oylariga nisbatan, foizda
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>102,5</b>	<b>100,6</b>	<b>4,7</b>	<b>87,8</b>	<b>97,8</b>	<b>101,3</b>
<b>shaharlari:</b>						
Qarshi	42,8	100,3	4,3	86,8	38,5	102,0
Shahrisabz	5,6	99,3	-	-	5,6	99,3
<b>tumanlar:</b>						
G'uzor	5,1	100,3	0,4	100,0	4,7	100,3
Dehqonobod	2,1	100,1	-	-	2,1	100,1
Qamashi	3,4	100,3	-	-	3,4	100,3
Qarshi	4,1	100,2	-	-	4,1	100,2
Koson	3,3	103,6	-	-	3,3	103,6
Kitob	5,6	102,0	-	-	5,6	102,0
Mirishkor	1,4	98,9	-	-	1,4	98,9
Muborak	7,7	99,2	-	-	7,7	99,2
Nishon	8,8	98,3	-	-	8,8	98,3
Kasbi	2,4	102,4	-	-	2,4	102,4
Ko'kdala	1,2	99,4	-	-	1,2	99,4
Chiroqchi	2,8	102,5	-	-	2,8	102,5
Shahrisabz	2,4	98,8	-	-	2,4	98,8
Yakkabog'	3,9	111,6	-	-	3,9	111,6

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- aprel holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **589,5** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **240,5** % o'sish sur'ati kuzatildi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **504,7** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **312,1** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi **84,8** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **90,3** %) tashkil qildi.

### **Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda**



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

### Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>589,5</b>	<b>100,0</b>
<b><i>shaharlar:</i></b>		
Qarshi	<b>537,8</b>	<b>91,2</b>
Shahrisabz	<b>4,1</b>	<b>0,7</b>
<b><i>tumanlar:</i></b>		
G'uzor	<b>0,4</b>	<b>0,1</b>
Dehqonobod	<b>1,0</b>	<b>0,2</b>
Qamashi	<b>0,2</b>	<b>0,0</b>
Qarshi	<b>28,0</b>	<b>4,8</b>
Koson	<b>1,8</b>	<b>0,3</b>
Kitob	<b>1,9</b>	<b>0,3</b>
Mirishkor	<b>2,0</b>	<b>0,3</b>
Muborak	<b>2,5</b>	<b>0,4</b>
Nishon	<b>1,0</b>	<b>0,2</b>
Kasbi	<b>1,5</b>	<b>0,3</b>
Ko'kdala	<b>0,4</b>	<b>0,1</b>
Chiroqchi	<b>5,5</b>	<b>0,9</b>
Shahrisabz	<b>0,6</b>	<b>0,1</b>
Yakkabog'	<b>0,6</b>	<b>0,1</b>


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Qarshi shahri (**537,8** mlrd. so'm), Qarshi (**28,0** mlrd. so'm) va Chiroqchi (**5,5** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mld. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **834,3** mld. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **102,3 %** ga kamaydi.



### Savdo aylanmasi ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **662,0** mld. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **88,6 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **79,3 %** ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK KORXONALAR

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Qarshi shahri (**2,8 b.**), Kasbi tumani (**2,4 b.**) Qarshi (**2,4 b.**), **Muborak (2,0 b.)**da kuzatildi.

2023- yil 1- aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **2198** tani tashkil etib, 2022- yil 1- aprel holatiga nisbatan **36** taga ko'paygan, o'sish sur'ati **101,7 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 11 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **2187** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar – mart oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – mart oylariga nisbatan, foizda
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>834,3</b>	<b>102,3</b>	<b>172,3</b>	<b>250,2</b>	<b>662,0</b>	<b>88,6</b>
<b>shaharlar:</b>						
Qarshi	424,9	111,3	125,9	276,0	299,0	89,0
Shahrisabz	66,4	88,5	-	-	66,4	88,5
<b>tumanlar:</b>						
G'uzor	18,3	88,0	-	-	18,3	88,0
Dehqonobod	4,6	85,0	-	-	4,6	85,0
Qamashi	13,3	87,7	-	-	13,3	87,7
Qarshi	68,6	100,6	12,5	236,2	56,1	89,2
Koson	94,9	86,3	-	-	94,9	88,9
Kitob	31,5	88,4	-	-	31,5	88,4
Mirishkor	2,1	88,1	0,2	-	1,9	79,9
Muborak	7,9	90,5	0,6	203,1	7,3	86,5
Nishon	5,8	85,7	-	-	5,8	85,8
Kasbi	44,0	167,2	33,1	240,6	10,9	87,0
Ko'kdala	6,6	88,3	-	-	6,6	88,3
Chiroqchi	13,5	83,8	-	-	13,5	87,0
Shahrisabz	12,2	87,6	-	-	12,2	87,6
Yakkabog'	19,5	88,1	-	-	19,5	88,1



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi**  
**Тел. 75-221-44-28**